



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Yaratov Hamid Muxtorovich**

*Qashqadaryo VXTXQTMOHM, Pedagogika, psixologiya va ta'lim  
Menejmenti kafedrası o'qituvchisi*

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI O'QUV-BILUV FAOLIYATI HAQIDA

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ta'lim jarayonidagi o'quv-biluv faoliyati haqida fikrlar yuritilgan. Shu bilan birga Sharq mutafakkirlari asarlarida o'quv-biluv faoliyati haqidagi fikrlardan keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Sharq mutafakkirlari, o'quv-biluv faoliyati, motiv, o'qitish jarayoni, bilish jarayonitafakkur, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino.

Fan-texnika taraqqiyoti va ilmiy bilimlarning umumiy hajminitez sur'atlar bilan oshib borishi insoniyatdan tinimsiz bilimolish va o'zlashtirilgan bilimlarni shiddat bilant o'ldiribborishni talabetmoqda. Bilishjarayonida o'quvchi bilmaslikdanbilishga. noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rishham bo'ladi.

O'quvchilar esa ta'lim jarayonida olamni bilib borib, o'zlari uchun ilgari noma'lum bo'lgan, biror fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyotida tekshirib ko'rilganyangi birnarsani bilb oldilar. O'qituvchi o'quvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan bu qonunni bilishga to'g'ri, engillashtirilgan, vaqt jihatidan qisqa yo'ldan olib boradi.

O'qitish natijalari bilimsifatida, o'quvchiningrivojlanish darajasida o'zaksini topadi.



Boshlang'ich sinflarda bilimlarni bolalar ongiga singdirishning aqliy qobiliyatiga hamda o'zlashtirish yosh xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, 1- sinfda bolalar aniq buyum-hodisalarga qarab fikrlasa, 2-sinfda uni biroz rivojlantirish mumkin va shu kabi tizimda bolalarning aqliy qobiliyat darajalari o'sishi rivojlanishi mumkin.

O'quvchilarga har bir mavzu yuzasidan fikr- mulohaza o'tkazilganda ularga nazariy va amaliy bilimlar berilsa, ko'rgazmali vositalardan yaxshi, foydalana olsagina, o'quvchilarning bu predmet, voqea-hodisalar to'g'risidagi dunyoqarashi, fikri, tushunchasi, aqliy qobiliyat darajalari o'sadi, rivojlanadi. Lekin, aqliy qobiliyat darajalari bu sinflarning barchasiga bir xillikni tashkil etmaydi.

O'quvchilarning o'quv-biluv mas'uliyatini oshirish uchun materialni dastlabki mustahkamlash vaqtida materialga oid savollar qo'yish bilan kifoyalanmaslik kerak. Buning uchun o'quvchining kitob va darsliklar bilan mustaqil ishlashdan, turli xil mashqlar, rebuslar, krossvordlardan, ko'rgazmali qurollarda, kompyuterlar ustida ishlashlaridan keng foydalanish mumkin. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa yangi bilimlarni egallashga turtki bo'ladi.

Ta'lim jarayonida olib borilgan tushunchalar ta'sirida bola atrofni, obyektiv borliqni ko'proq bilgani sari, ongillik darajasi o'sadi, qobiliyati rivojlanadi, malaka va ko'nikmalar egallaydi. Buning uchun esa o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otish o'qituvchi oldida turgan eng muhim vazifa dir.

Bola kelgusida kasb-hunar egallashi, jamiyatda obro'libo'lishi uchun bu predmetni yaxshi egallashi zarurligini anglash- motiv hosil qilishning muhim usullaridan hisoblanadi.

Pedagogik- psixologik adabiyotlarda "motiv" tushunchasi quyidagicha izohlanadi: agar ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi (vazifasi) talaba uchun biror shaxsiy qimmatga ega bo'lsagina, kishida unga qiziqish uyg'onishi va ta'lim maqsadi shaxsning o'z ehtiyojiga aylanishi mumkin. Motiv- kishini biror ish harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki hisoblanar ekan, muallimlar bolada o'qishga motiv hosil qilishga intilishlari, o'quv jarayonida uni hisobga olib, o'stirish va boshqarishlari zarur.

Shuni ta'kidlash lozimki, kishi nima uchun yaxshi o'qiydi yoki nega o'qigisi kelmaydi, degan savolga aniq, to'g'ri javob berish- oson ish emas.

Biror ish faoliyatiga motiv hosil qilish- bu murakkab ruhiy jarayondir. O'quvchida bilim olishga intilish (motiv) uyg'otish- ijodkor o'qituvchilarga xos xususiyatdir. Bolada o'qishga motiv uyg'otish ijodkor o'qituvchilarga xos xususiyatdir. Bolada o'qishga motiv hosil bo'lganini ko'rsatuvchi muhim belgilardan biluv- o'quv topshirig'ini bajarishga tezda, astoydil kirishib ketishi, o'qishga bo'lgan qiziqishning barqarorligidir.

O'quvchining bilim olish motivlari kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Motivlar o'z-o'zidan paydo bo'lavermaydi. Motiv hosil qilishning turli yo'llari, usullari mavjud.

Buyuk mutafakkirlarimiz bilish faoliyati xususida muhim fikrlarni bildirganlar.

O'rta Osiyoning mashhur mutafakkilidan biri Abu Nasr Forobiyning Forobiyning asarlarida didaktika masi. Bilhning falsafiy, fiziologik va psixologik asoslari haqida ham tuxtalib o'tilgan. Jumladan, Forobiyning fikricha, insonning bilish faoliyatini tashkil etish masalalarida qoidaga amal qilish zarur.

➤ Ma'lum bir fan asosida yotgan barcha prinsiplarni yaxshi bilish kerak.



- Ushbu prinsip va ma'lumotlardan zarur xulosa chiqara olish kerak, ya'ni muhokama etish qoidalarini egallash zarur.

Forobiy bilimegallash jarayonida fikrlash malakalarini shakllantirish haqida shunday dedi: "Maqsadni amalga oshirishda qasd va g'ayrat qilishmo'ljallangan ishni bajarishda katta ta'sirga egadir". Uning fikricha yoshlar kuch-g'ayrat vaqasdga ega bo'lganlaridan ularni asta-sekin egallashda yuqorilab boradilar.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino nafaqat tibbiyot olamidagi kashfiyotlari bilan, balki ta'lim- tarbiya sohasidagi ishlari bilan ham diqqat e'tiborga sazovordir. U "Tadbiri manozil" asarida o'quvchilarning fikrlash faoliyatini yaxshilash. bilim berish jarayonining samaradorligini oshirishda o'quvchilarni birga o'qitish ham muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchi zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi.

Ibn Sinoning fikricha, bilishsezishdan boshlanadi. Ibn Sino insonning fikrlash qobiliyatigava iroda sifatlariga yuqori baho beradi va bu psixik jarayonlarning bir-birlaribilan mustahkam bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Sezilar-olam haqidagi barcha bilishlarimizningmanbaidir. Ammo. ilmiy asosda bilishda, masalan olimning bilishibilano'quvchining bilish faoliyati o'rtasida umumiylik bo'lsa ham lekin,ularbir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilibolib,ilgari fanga ma'lumbo'lmagan yangi haqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni aniqlaydilarva shu fanning ilgari ketishiga imkon yaratadilar.

Sharqning buyuk allomalari qomusiy olim Abu Nasr Farobiy o'quvchining ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'zga xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surganlar. Uning fikricha o'quvchiga ta'lim berish, ilmiy qilish yo'lida o'kituvchi tinmasdan mashaqqatli mehnat qilish kerak, shunda o'quvchi o'qishga, ta'lim olishga, bilimli bo'lishga intiladi. Allomaning mulohazasiga binoan har qanday o'quvchi o'z hatti-harakatidan xabardor bo'lmog'i va shu sa'yi-harakatlari tufayli baxtga erisha oluvchi insonligini anglamog'i lozimdir. Farobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l-ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat, nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi deydi. Har ikkalasi birikilsa, yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi deb ko'rsatadi.

Farobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi.

Bu muhim vazifa tajribli tarbiyachilar tomonidan ta'lim tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Farobiy ta'lim-tarbiya ishlarini ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. «Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bo'lardan birinchisi: qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, nihollantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odatdagi g'ayrat, kasb-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l: majbur etish yo'li. Bu usul gapga kunmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroiylar xalqlarga nisbatan qullaniladi. Demak, Farobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham insonni har

tomonlarga kamolga yetkazish maqsadini koʻzlaydi. Mazkur muommo yuzasidan mulohaza yuritgan. Oʻz zakovati, bilimi, buyuk ilmiy asarlari bilan jahondagi barcha xalqlarning hurmatiga musharraf boʻlgan atoqli olim Abu Ali Ibn Sino «Tayr» (kush) «Hayy Ibn Yakzon» («Uygʻok oʻgʻil tulki») kabi qissalarida oʻzining psixologik qarashlarini ifodalaydi. u «Tayr» asarida insonlarni doʻstlikka, bilim oʻrganishga chaqiradi. Bir-birimizdan bilim oʻrganib, kamol topishimiz uchun «din pardasini ochib tashlaganlar» deya uqtiradi.

Shuning uchun Ibn Sino bolalarning tarbiyasi va oʻqishi kabi masalalariga juda diqqat va maʼsuliyat bilan qarash kerakligini taʼkidlaydi. «Bola olti yoshga etgach, uni muallimga topshiriladi va taʼlim asta sekinlik bilan berilishi kerak. Uni birdaniga kitobga bogʻlab qoʻymaslik kerak deya taʼkidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilishga ega boʻlish kerakligi lekin har qanday bilim haqiqatga olib kelmasligi, inson oʻz bilimining haqiqiylikini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning taʼlim metodlari haqidagi asoslarini bilimlarki egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan gʻoya yotadi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda oʻqitish zarurligini qayd etar ekan, taʼlimda qoʻyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini taʼkidlaydi:

- ✓ bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qoʻymaslik.
- ✓ taʼlimda engildan ogʻirga borish orqali bilim berish;
- ✓ olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos boʻlishi;
- ✓ oʻqitishda jamoa boʻlib maktabda oʻqitishga eʼtibor berish bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- ✓ oʻqitishni jismoniy mashqlar bilan qoʻshib olib bordi:

Bu talablar hozirgi davr taʼlim tamoyillariga mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga oʻzining «Tadbiri manzil» asarida maxsus boʻlish bagʻshlaydi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni engil-elpi bilim olish emas, balki har tomonlarga chuqur va mustahkam bilim olishga yordam beradi. Oʻquvchiga bilim berish oʻqituvchining maʼsuliyatli burchidir. Shunga koʻra Ibn Sino oʻqituvchining qanday boʻlish kerakligi haqida fikr yuritir ekan, shunday yul-yuriqlar beradi. Bular quyidagilardan iboratdir.

- ✓ bolalar bilan muomilada bosiq jiddiy boʻlish;
- ✓ berilayotgan bilimning talabalar qanday uzlashtirib olayotganiga eʼtibor berishi;
- ✓ taʼlimda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- ✓ oʻquvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- ✓ Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi.
- ✓ bilimlarni oʻquvchilarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

har bir soʻzning bolalar xissiyotini uygʻotish darajasida boʻlishga erishish zarur deydi olim. Ibn Sino taʼlimotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin-u ogʻzaki ifodani, bilimlarnitushuntirishni, turli koʻrinishlardagi suhbatmi, tajribalarni, baribir talabalarda haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish olgan bilimlarini amaliyotgatadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad boʻlgan.

Oʻqituvchining psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlariga oid mulohazalar qomusiy olim Umar Xayyomning asarlarida ham oʻz aksini topgan. Umar Xayyomning asarlarida taʼkidlanishicha oʻquvchining bilimlarini oʻqituvchi bergan maʼlumotlardan va kitob oʻqish

orqaligina emas balki hayotiy xodisalarni bevosita o'rganish jarayonida ko'nikma va malakalarning esa amaliyotda aynan bir xil harakat va amallarni esa ko'p marotaba takrorlashda ham turli usullarni qo'llash natijasida egallab oladilar.

Demak, ta'limning maqsadi har biro'quvchining aniqlik birkasbni (mutaxassislikni) egallashiga yo'naltirilgan bo'lsa, o'qituvchining vazifasi esa o'quvchida shu kasbni egallashi uchun kerak bo'ladigan fanlarni, bilimlarni egallashga moyil, intilish, qiziqish-motiv hosil bo'lish uchun qulay sharoit yaratishdir.

O'quvchining bilimni o'zlashtirilishi uning o'quv-biluv faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Bilim olish uchun motiv hosil qilish bilan birga o'quvchi o'quv materialini o'zlashtirishga imkon yaratadigan o'quv-biluv mas'uliyatini ham hisetishi lozim, ya'ni o'quvchining o'z faoliyat ko'rsatib o'qimog'i kerak. Bunda muallimning vazifasi bilim olishning qulay usullarini tanlab, o'quvchilarga uni bajarish yo'llarini ko'rsatishdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbek pedagogikasi tarixi. "O'qituvchi" 1997. 247-bet.
2. Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi "O'qituvchi" 1996. 150-bet.
3. Pedagogika. /prof. M.X. Toxtaxodjaye vaning umumiy tahriri ostida.- T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010,- 400 b.
4. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.